
A.YU. KUCHKINOV

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

MONOGRAFIYA



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDUMALIK KUCHKINOV YULDASHOVICH

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Monografiya

TOSHKENT
“ZEBO PRINTS” – 2025

UDK: 371. 3: 372. 361
KBK: 84.3(5O‘)
K 74

Kuchinov A.Yu
Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik immunitetni rivojlantirish texnologiyasi. [Matn]: Monografiya / A.Yu.Kuchkinov. – T.: “ZEBO PRINTS” nashriyoti. 2025. – 112 b.

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universitetining 2025 yil -noyabrdagi Ilmiy texnik kengashida ma’qullangan (5-sonli bayonnoma) va nashr ...ishga tavsiya ...ilgan.

Mas’ul muharrir:
A.R.Hamroyev – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
Avazov Sherimmat – pedagogika fanlari nomzodi, professor.
Fariddun Ochilov – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Mazkur monografiyada boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik immunitetni rivojlantirish texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Asarda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda ekologik ong, axloqiy mas’uliyat va tabiatga ongli munosabatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik immunitet tizimi ilmiy asosda tahlil qilingan.

Monografiyada pedagogik immunitetni rivojlantirishda interfaol usullar, zamonaviy axborot texnologiyalari va fanlararo integratsiyaning ahamiyati ko‘rsatilgan. Asar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, pedagogika yo‘nalishidagi magistrantlar hamda tadqiqotchilar uchun nazariy va amaliy qo‘llanma vazifasini bajaradi.

ISBN 978-9910-618-52-9

© A.Yu.Kuchkinov, 2025.
© “ZEBO PRINTS” nashriyoti, 2025.

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon ta’lim tizimida zamonaviy ekopedagogik konsepsiyalar inson va tabiat o‘rtasidagi barqaror munosabatni ta’minlash, shaxsda ongli ekologik tafakkur va mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich ta’lim jarayonida tabiiy fanlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarda tabiatga munosabatning axloqiy, kognitiv va emotiv jihatlarini qamrab olgan pedagogik immunitetni rivojlantirish texnologiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiya shaxsda tabiatga oid bilimlarni ongli qabul qilish, ularni shaxsiy tajriba bilan uyg‘unlashtirish hamda ekologik qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishni ta’minlaydi. Shuningdek, pedagogik immunitet o‘quvchini bilim olish jarayonida ichki motivatsiya, barqaror qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyat asosida faol fikr yuritishga yo‘naltiradi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ekologik ta’lim va pedagogik immunitetni rivojlantirishda fanlararo yondashuv ustuvor ahamiyatga ega. Tabiiy fanlarni o‘qitishda ekota’lim texnologiyalarini qo‘llash o‘quvchilarda tabiatga estetik munosabat, ijodiy fikrlash va ekologik refleksiyani rivojlantiradi. Shu orqali boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchi shaxsida tabiiy fanlarga qiziqish, tahliliy tafakkur va barqaror dunyoqarash shakllanadi. Bu esa kelgusida ekologik madaniyat va ilmiy tafakkurning asosini tashkil etib, pedagogik immunitetni ta’limning ustuvor tarkibiy qismi sifatida mustahkamlaydi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasida belgilangan “aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkoralik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish”[1] muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Parij bitimidan kelib chiqib ishlab chiqilgan Harakatlar milliy rejasi hamda 2019–2030 yillarga mo‘ljallangan “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi mamlakatda barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ushbu strategik hujjatlar atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф-муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5863-сон фармони Тошкент, 2019 йил 30 октябрь.

xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan yangi davlat boshqaruvi modelini yaratishni nazarda tutadi. Bu esa, o‘z navbatida, boshlang‘ich ta’lim jarayonida tabiiy fanlarni o‘qitishning mazmun-mundarijasini qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchilarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish va ularning ekologik mas’uliyatini mustahkamlashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik immunitetni rivojlantirish texnologiyalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ekologik, ijtimoiy va axloqiy jihatdan barqaror tafakkurga yo‘naltiruvchi innovatsion pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Bu texnologiyalar o‘quvchi shaxsida tabiat bilan o‘zaro munosabatda emotsional barqarorlik, kognitiv faollik va axloqiy mas’uliyatni rivojlantirish orqali ekota’limning ilmiy-amaliy asoslarini mustahkamlaydi hamda ta’lim jarayonini barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Prezident Sh.M.Mirziyoev BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasida ta’kidlaganidek, “Biz Orol bo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e’lon qilish haqida BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini qabul qilishni taklif qildi. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani “Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni” sifatida joriy qilish va amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘lardi”[2].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 187-son qarori[3], Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil ...ish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son[4], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmonlari[5], Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

[2] «Халқ сўзи» газетаси № 202 24.09.2020 http://xs.uz/uz/site/newspaper?page=6

[3] Компетенсиявий ёндашув асосидаги Давлат таълим стаидарти. -Т. 2017 йил 6 апрелдаги 187-сон қарори.

[4] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 997-сон қарори.

[5] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги ПФ-5712-сон фармони.

to‘g‘risida»gi 434-son qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni[6], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha Rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son farmoni[7], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni[8] kabi me’yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Zamonaviy umumta’lim tizimida ekologik ta’lim va tarbiyaning nazariy-pedagogik asoslari, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar tizimi ta’lim mazmunining uzluksizlik hamda uzviylik tamoyillari asosida takomillashib bormoqda. Bu jarayon boshlang‘ich ta’lim jarayonida tabiiy fanlar mazmunini integratsiyalashtirgan holda shakllangan yagona pedagogik tizimni vujudga keltiradi. Xususan, boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar orqali o‘quvchilarda suv resurslaridan oqilona foydalanish, atmosfera havosini muhofaza qilish, yer va yer osti boyliklaridan ratsional foydalanish, flora va faunaga nisbatan insoniy munosabatni shakllantirish kabi ekologik ongni rivojlantiruvchi bilimlar tizimli ravishda beriladi. Shu bilan birga, chiqindilarni saralash va qayta ishlash madaniyati, mahalliy tabiatni asrashda faol ishtirok etish, qo‘riqxonalar va tabiat bog‘larining ahamiyati, hamda Orol dengizi bilan bog‘liq ekomuammolar haqidagi bilimlar o‘quvchilarda tabiatga munosabatning empirik va kognitiv darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Natijada, tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoni orqali boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarda pedagogik immunitetni rivojlantirish texnologiyalari amaliy ifoda topib, ularning ekologik tafakkuri, ijtimoiy mas’uliyati va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim omilga aylanadi.

---

[6] Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни, “Халқ сўзи”, №202 (7704). 24.09.2020 йил.

[7] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепсияси 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097 сон фармони.

[8] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисидаги 2020 йил 6 ноябрдаги ПФ-6108 – сон фармони.

MUNDARIJA

	KIRISH……..	3
I BOB	**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**.....	7
1.1-§	Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik immunitetni rivojlantirish - pedagogik muammo sifatida ……..	7
1.2-§	Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik immunitetni rivojlanning mohiyati …….	34
1.3-§	Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik immunitetni rivojlanishning amaliyotidagi holati……..	66
	I bob bo‘yicha xulosa……..	77
II BOB	**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK IMMUNITETNI RIVOJLANISHNING AMALIY JIHATLARI** …….....	78
2.1-§	Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik immunitetni rivojlanish mazmuni va unga majmuaviy yondashish……..	78
2.2-§	Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik immunitetni rivojlanish texnologiyalari.....	88
2.3-§	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik immunitetni rivojlanish texnologiyalari ……..	102
	II bob bo‘yicha xulosa ……..	110
	UMUMIY XULOSA.....	111
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati……..	112

ABDUMALIK YULDASHOVICH KUCHKINOV

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Monografiya

Muharrir: X. Tahirov
Texnik musahhih: S. Meliqo’ziyeva
Musaxhih: M. Yunsova
Sahifalovch: A. Muxammad

Nashr. Lits № 2244. 25.08.2020
Bosishga ruxsat etildi 2026.11.2025
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Xisob nashr tabog‘i 7.
Adabi 100 dona. Buyurtma № 80

«ZEBO PRINTS» MChJ bosmaxonasida chot etildi
Nashriyot tel. raqami +998 (97) 017-01-01
+998 (94) 673-66-56

my.gov.uz

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

№ 3604-6469-27e2-082b-d742-7303-4622
Hujjat yaratilgan sana: 2025-11-27
Ariza raqami: 231229381

Hujjat berilgan: "ZEBO PRINTS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
STIR: 306343716

Nashrlarga kitobning ISBN xalqaro standart tartib raqamini berish MA’LUMOTNOMASI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Axborot-kutubxona sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2023-yil 1-may 176 – sonli qarori talablari asosida kitob mahsulotiga quyidagi ISBN xalqaro standart tartib raqami belgilash uchun taqdim etildi:

Muallif	Kitob nomi	Kitob janri	Kitob chop etiladigan til	Kitob hajmi	Kitob adadi	Berilgan ISBN tartib raqami
Kuchinov A.Y.	Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik immunitetni rivojlantirish texnologiyasi	monografiya	O‘zbek tili lotin yozuvida	A5	100	978-9910-618-52-9

RAXMEDOVA GULBAXOR TULKUNOVNA

Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentyabrdagi 728-son qaroriga muvofiq Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi bo‘lib, davlat organlari tomonidan ushbu hujjatni qabul qilishni rad etishlari qat’iyan taqiqlanadi. Hujjat haqiqiyligini repo.gov.uz veb-saytida hujjatning noyob raqamini kiritib yoki mobil telefon yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin.

6279

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY-TEXNIK KENGASHINING 5 – SONLI YIG‘ILISHI BAYONNOMASIDAN KO‘CHIRMA

Chirchiq sh. **01.12.2025 y.**

Raislik qiluvchi: **B.X. Eshchanov**

Qatnashdilar: **Universitet Ilmiy-texnik kengashi – 15 nafar**

Kun tartibi:

2.11. Boshlang‘ich ta’lim fakulteti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi A.Y.Kuchinovning “Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik immunitetni rivojlantirish texnologiyasi” nomli monografiyasini nashrga tavsiya etish to‘g‘risida.

ESHITILDI: S.A.Toshtemirova dotsent (Ilmiy texnik kengash a’zosi)

A.Y.Kuchinovning “Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik immunitetni rivojlantirish texnologiyasi” nomli monografiyasi haqida ma’lumot berib o‘tdi. Ushbu Monografiyada boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik immunitetni rivojlantirish texnologiyasining pedagogik–psixologik xususiyatlari, o‘quvchilarni ekologik tarbiyalash jarayonida foydalanadigan tamoyillar, usullar va ko‘nikmalarning barchasini o‘rganish va amalga oshirishga, didaktik materiallar bilan ishlash metodikasi ishlab chiqilgan. Monografiya, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, pedagogika mutaxassisligi magistrantlari hamda oliy ta’lim muassasasida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar va mazkur yo‘nalishda izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar: Buxora davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi professori, A.R.Hamroyev, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi v/b dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Ochilov.F.I tomonidan nashrga tavsiya qilingani, kafedra, fakultet kengashi yig‘ilishlarida muhokama qilingani hamda nashrga tavsiya etilganligi haqida axborot berdi.

SO‘ZGA CHIQDILAR: Ilmiy-texnik kengash raisi B.X. Eshchanov va boshqalar monografiyani nashrga tavsiya etish taklifini qo‘llab-quvvatladilar.

QAROR QILINDI:

1. Universitet Ilmiy-texnik kengashi kotibi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. A.Y.Kuchinovning “Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik immunitetni rivojlantirish texnologiyasi” nomli monografiyasi nashrga tavsiya etilsin.

Kengash raisi: **B.X. Eshchanov**

Kotib: **S.A. Toshtemirova**

Asliga to‘g‘ri:
Kotib **S.A. Toshtemirova**

Toshtemirova imzosini tasdiqlayman
CHDPU XB inspektori
"___"_____20__y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
XODIMLAR BO‘LIMI